

№ _____ / _____ -KREDIT SHARTNOMASI

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy banki” AJ
“ _____ ” bank xizmatlari markazi

va

“ _____ ” MCHJ

202__-yil “ _____ ” _____

_____ shahri

_____ shahri

«_____» _____ 202_ yil

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ (keyinchalik “Bank, Kreditor” deb nomlanuvchi) nomidan, _____ -yildagi _____-sonli Ishonchnoma asosida faoliyat yuritayotgan _____ viloyati “_____” bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi _____ va “_____” MCHJ (keyinchalik “Qarz oluvchi” deb nomlanuvchi) nomidan, _____ birgalikda Tomonlar va alohida Tomon sifatida, “Kelajakka qadam” dasturiga asosan “_____ faoliyatini tashkil qilish” loyihasini amalga oshirish maqsadida “_____ sotib olish” uchun Qarz oluvchining arizasini inobatga olgan holda ushbu Kredit shartnomasi (keyingi o‘rinlarda - Shartnoma)ni tuzdilar:

1. TA'RIFLAR

1.1. Ushbu Shartnomaning matni davomida, agar boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa yoki Shartnoma matnida boshqacha ma‘no nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu Shartnomada belgilangan atamalar quyidagi ma‘noga ega:

Aktivlar – har qanday turdagi mulk, daromadlar va talab qilish huquqlari.

Bankning asosiy stavkasi - foiz stavkasi, shartnoma bo‘yicha xar qanday to‘lovlarni to‘lash majburiyatlariga mos keladigan valyutada berilgan kreditlar bo‘yicha Bank tomonidan vaqti-vaqti bilan ushbu Shartnomaga muvofiq kredit muddatiga mos keladigan foiz stavkasi belgilanadi.

Loyiha - qarz oluvchi tomonidan moliyalashtirish uchun taqdim qilingan loyiha.

Kredit valyutasi – so‘m.

Foizlarni to‘lash sanasi – Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo‘yicha barcha o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarilguniga qadar har oyning ___ sanasida.

Asosiy qarzni to‘lash sanasi – imtiyozli muddat tugaganidan so‘ng (agar imtiyozli davr bo‘lsa) har oyning ___ sanasida.

Moliyalashtirishni ochish sanasi – kreditning yoki uning bir qismining sanasi (kredit bo‘yicha).

Mavjud summa – ushbu Shartnoma bo‘yicha qarzning to‘liq miqdori va Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq foydalanilgan Kredit summasi o‘rtasidagi farq.

Kredit qarzdorligi (Asosiy qarz) – Qarz oluvchi tomonidan foydalanilgan, ammo to‘lanmagan Kredit bo‘yicha qarzdorlik yoki uning qismi.

Kreditdan foydalanish – qarz oluvchi tomonidan Loyihani amalga oshirish uchun Kredit shartnomasi bo‘yicha mablag‘lardan maqsadli foydalanish.

Kapital – quydagilarni o‘z ichiga olgan aktivlarning umumiy miqdori: (a) shakllangan ustav kapitali, (b) qo‘shilgan kapital, (c) taqsimlanmagan foyda va (d) maxsus majburiyatlarni qoplash uchun mo‘ljallangan zaxiralar.

Nazorat – har qanday shaxsga nisbatan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita, ovoz berish huquqini beruvchi aksiyalar yoki ulushlarga egalik qilish orqali bo‘lsin, yoki shartnoma bo‘yicha yoki boshqa tarzda, bunday shaxsning boshqaruvi va siyosatini yo‘naltirish yoki ta‘sir ko‘rsatishga huquqning mavjudligi.

Kapital yetarliligi koeffitsienti – Qarz oluvchi kapitalining Qarz vositalariga nisbati.

Ushbu ta’rif maqsadlari uchun «Qarz vositalari» atamasi Qarz oluvchining kredit yoki qarz kelishuvlari (shartnomalar) bo’yicha barcha qarzdorlik majburiyatlarini bildiradi.

Kontrakt (shartnoma) - Kredit mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilayotgan mijozning uchinchi shaxslar oldidagi majburiyati yuzasidan tuzilgan bitim.

Kredit – Bank tomonidan Qarz oluvchiga ushbu Shartnomada ko‘zda tutilgan shartlar bilan taqdim etiladigan, hamda _____ (_____) so‘mdan ortiq bo‘lmagan, Kredit valyutasidagi mablag‘larning umumiy qiymati.

Kreditlash manbai – Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi yoki bank o‘z mablag‘lari hisobidan.

Loyihani moliyalashtirish maqsadi: “_____ faoliyatini tashkil qilish” loyihasini amalga oshirish maqsadida “_____ sotib olish”

Kreditor/Bank – “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ “_____” bank xizmatlari markazi

Kredit bo‘yicha foiz stavkasi - muddatli kredit qarzdorlik uchun yillik 15 foizni tashkil etadi.

Kredit muddati - kredit shartnomasini tuzgan sanadan boshlab “_____” oygacha.

Asosiy qarzni to‘lash bo‘yicha imtiyozli davr – moliyalashtirilgan sanadan boshlab “_____” oygacha.

Foizlarni hisoblash davri – Foiz to‘lovi Foizlarni to‘lash sanasidan boshlanadi va Qarz oluvchi tomonidan qarz to‘liq to‘lanmaguncha davom etadi.

Asosiy qarzni to‘lashning oxirgi sanasi - kredit muddatidan kechikmay belgilangan, asosiy qarzni to‘lashning oxirgi sanasini bildiradi.

Asosiy qarzni qaytarish davri - imtiyozli davr tugaganidan so‘ng har bir foizlarni to‘lash sanasida birinchi kredit to‘lovini qaytarish sanasidan boshlab va oxirgi kredit to‘lovini qaytarish kunigacha bo‘lgan, lekin “_____” oydan ko‘p bo‘lmagan muddat.

Foizlarni to‘lash muddati – kredit asosiy qarzini to‘lashning har bir sanasida va kredit asosiy qarzining oxirgi qismini to‘lash paytigacha.

Ushlab turish huquqi - har qanday zakalat, garov, talab, imtiyozli huquqlar, ipoteka, yon berish, ushlab turish, xatlash, o‘zaro hisobga olish yoki boshqa mavjud imtiyoz choralari yoki kelajakdagi har qanday aktivlarga, tushumlar yoki huquqlar.

Uchinchi tomon - ushbu Shartnoma tomoni bo‘lmagan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs.

Ish kuni – banklar va/yoki boshqa moliya institutlari tomonidan bank operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin bo‘lgan kun (O‘zbekistonda).

1.2. Ushbu Shartnomada, agar Shartnoma matni bo‘yicha boshqacha talab qilinmasa, birlik ma’nosini bildiruvchi so‘zlar ko‘plik sonini va aksinchani anglatadi.

1.3. Ushbu Shartnomadagi ma’lum bir qismga yoki moddaga havolalar aynan shu shartnomani bo‘limga yoki moddasiga havolalar sifatida tushuniladi.

1.4. Sarlavhalar faqat qulaylik uchun kiritilgan va ushbu Shartnomaning talqiniga ta’sir qilmaydi.

2. KREDIT VA KREDIT VALYUTASI

2.1. Bank, ushbu Shartnomada belgilangan shartlarda Loyihani moliyalashtirish maqsadida Qarz oluvchiga Kredit valyutasida _____ (_____) soʻmdan ortiq boʻlmagan miqdorda kredit berish majburiyatini oladi.

2.2. Kredit Qarz oluvchi tomonidan quyidagi kreditlash talablari bajarilgan hollarda taqdim etiladi: kreditni maqsadli ishlatilishi taʼminlanganligi, uning qaytishi, muddati va foizlilik.

2.3. Agar Bank tomonidan kredit ajaratilishiga kelishilgan Loyiha, Kontrakt yoki ular bilan bogʻliq har qanday xarajatlar kamaysa va agar Bank boshqacha shartlarga roziligini bildirmasa, Kredit miqdori ham kamaygan xarajatlar miqdoriga mutanosib ravishda kamayadi.

2.4. Bankning Kredit berish boʻyicha majburiyatlari Bank tomonidan pul mablagʻlari Qarz oluvchi uchun Bankda ochilgan ssuda hisobvaraqaasi koʻchirilgan kundan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

3. KREDITDAN FOYDALANISH

3.1. Kreditdan Loyihani va Kontraktlarni moliyalashtirish uchun foydalaniladi.

3.2. Kredit hisobidan moliyalashtirish va toʻlovni ochish tartibi ushbu Shartnomaning 18.2., 18.3. va 18.4. bandlarida aks ettirilgan shartlarga muvofiq holda amalga oshiriladi.

3.3. Akkreditivni ochish va tasdiqlash, hujjatlarni qabul qilish, tekshirish, kreditdan foydalanish va toʻlash boʻyicha barcha toʻlovlar, shuningdek ushbu Shartnoma doirasida boshqa toʻlovlar amaldagi Bank qoidalari va amaliyotlari, Qarz oluvchining toʻlov hujjatlari shartlari va ushbu Shartnoma shartlari bilan tartibga solinadi.

3.4. Ushbu Shartnoma boʻyicha kredit harakatini hisobga olish uchun bank Qarz oluvchi nomiga kredit hisobini ochadi va vaqti-vaqti bilan Qarz oluvchiga ushbu hisob qaydnomasini taqdim etadi.

3.5. Qarz oluvchining Kreditdan foydalanish boʻyicha har qanday koʻrsatmalari, topshiriqlari va soʻrovlari qayta chaqirib olinmaydi.

3.6. Qarz oluvchi mazkur Shartnoma shartlariga, Qarz oluvchining koʻrsatmasi va soʻrovlariga muvofiq Bank tomonidan ishlab chiqarilgan kredit hisobiga har qanday toʻlovlarni oʻz qarzlari bilan mutlaqo tan oladi (qarz oluvchining koʻrsatmalari faqat ushbu Shartnoma shartlariga va/yoki Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid boʻlmagan hollarda yoki Bank tomonidan uchinchi tomon foydasiga toʻlovlar boʻyicha qaytarilmas majburiyatlar berilmagan holda amalga oshiriladi). Kontrakt boʻyicha yetkazib berish bilan bogʻliq barcha nizolar va daʼvolar (sifat, toʻliqlik va x.k.), shuningdek, Kontrakt boʻyicha tomonlarning har qanday tartib-qoidalari va majburiyatlari ushbu tomonlar tomonidan Kontrakt va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq tartibga solinadi. Qarz oluvchi Kontrakt shartlariga asosan Bankka eʼtiroz bildirmaydi.

3.7. Qarz oluvchining hisobvaraqlari boʻyicha Bank koʻchirmalari, aniq xatolar boʻlmagan taqdirda, qarz oluvchining ushbu Shartnoma boʻyicha toʻlov majburiyatlari yuzaga kelishi yoki bajarilishining yakuniy dalili boʻladi.

4. HARAJATLARNI QOPLASH VA TOʻLOVLAR

4.1. Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma boʻyicha amalga oshirilgan har qanday toʻlovlar, boshqa majburiy qoidalar mavjud boʻlmasa yoki Bank boshqacha qaror qilmasa, Bank tomonidan Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish uchun quyidagi ketma-ketlikda yoʻnaltiriladi:

a) Komissiyalar, jarimalar, penyalar, muddati oʻtgan asosiy qarzlarning uchun hisoblangan oshirilgan foiz toʻlovi;

b) Muddatli asosiy qarz uchun hisoblangan muddati oʻtgan foizlar;

c) Muddati oʻtgan asosiy qarz;

d) Muddatli foizlar;

e) Muddatli asosiy qarz.

Kreditni toʻlash qonuniy kuchga kirgan sud hujjati ijrosi doirasida amalga oshirilgan taqdirda, uni toʻlash tartibi ushbu sud hujjatida belgilanadi.

4.2. Bankning birinchi so'roviga binoan, Qarz oluvchi ushbu Shartnomani va tegishli hujjatlarni tayyorlash, ro'yxatdan o'tkazish, sertifikatlash, shuningdek ushbu Shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplaydi.

4.3. Agar ushbu Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan har qanday to'lov O'zbekistonda ish kuni hisoblanmaydigan kunga to'g'ri kelsa, u holda to'lov keyingi ish kunida amalga oshiriladi, shu jumladan ushbu kunni foizlarni hisoblash uchun kiritgan holda.

4.4. Qarz oluvchi Bankning birinchi talabi bo'yicha Bank tomonidan amalga oshirilgan barcha qo'shimcha xarajatlarni yoki Bank ushbu Shartnomaning bajarilishi munosabati bilan Bank tomonidan amalga oshiriladigan quyidagi xarajatlarni qoplaydi:

a) ushbu Shartnomani bajarish bo'yicha Qarz oluvchining harakatlari yoki ko'rsatmalari;

b) Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi;

c) Bank tomonidan kredit bo'yicha olingan ta'minotni olish, sug'urta qilish va sotish bo'yicha Bankning har qanday qo'shimcha xarajatlari;

d) ushbu Shartnoma bo'yicha Bankning huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan harakatlar yoki Kredit uchun garov ta'minoti, shu jumladan ushbu Kredit shartnomasi bo'yicha qarzlarni undirish bilan bog'liq barcha xarajatlar;

e) Bankning har qanday xarajatlari, shu bilan birga, garovni rasmiylashtirish, olish va taqdim qilish, to'lovlarni amalga oshirish uchun hamda, kelgusida ham yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xarajatlar, shu jumladan unga garov ta'minoti bilan bog'liq xarajatlar;

f) Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomani boshqa shartlarini bajarmasligi oqibatida Bank xarajat qilishga majbur bo'lsa.

4.5. Qarz oluvchi bunday xarajatlarni to'lash uchun zarur bo'lgan summani Bank ixtiyoriga bermaguncha, Bank Qarz oluvchining har qanday ko'rsatma va talablarini yoki ushbu Shartnoma qoidalarini bajara olmasligiga rozilik beradi.

4.6. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha Bankga barcha to'lovlarni shu manbada undiriladigan soliq, yig'imlar, komission haqlar va boshqa xarajatlarni olib tashlaganidan so'ng amalga oshiradi.

4.7. Kredit bo'yicha asosiy qarzni to'lash bo'yicha barcha to'lovlar, foizlarni to'lash Qarz oluvchi tomonidan kreditning valyutasida, qarz oluvchining o'z mablag'larini konvertatsiya qilish, tayyor mahsulotni sotish, shuningdek boshqa qarzlarni Qarz oluvchining barcha hisobvaraqlariga xorijiy va milliy valyutalarda o'tkazish orqali amalga oshiriladi (konvertatsiya yo'li bilan).

4.8. Boshqa barcha to'lovlar, shu jumladan ushbu Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi tomonidan Bankka to'langan yoki qaytarilgan har qanday qo'shimcha to'lovlar, Qarz oluvchi tomonidan Bankka tegishli xarajatlarning valyutasida Bankka to'lanadi.

4.9. Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha to'lov majburiyatlari faqat Bank kredit bo'yicha tegishli to'lov muddati tugagunga qadar tegishli to'lov valyutasida zarur miqdorni olgan taqdirda amalga oshiriladi. Bank O'zbekiston respublika valyuta birjasiga qarz oluvchining mavjud mablag'larini Bank nazoratidan tashqarida bo'lgan holatlar yoki hodisalar oqibatida kelib chiqqan to'lov valyutasida aylantirishdagi har qanday kechikishlar uchun javobgar bo'lmaydi.

4.10. Ushbu Shartnomaning 14 bo'limida ko'rsatilgan majburiyatlar vujudga kelgan taqdirda, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini ta'minlash maqsadida Qarz oluvchi Bankka, 13.04.2020y. dan № 3229 – sonli “O'zbekiston Respublikasida naqdsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish haqidagi Nizom” ga muvofiq, to'lov talabnomalari asosida aktseptsiz qarzni undirish huquqini taqdim etadi. Ushbu huquq Qarz oluvchi tomonidan Bankka taqdim etilgan tegishli qarzni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 776 va 783 moddalariga muvofiq hisobdan chiqarish haqidagi topshirig'ini anglatadi.

4.11. Qarz oluvchi ushbu kredit Shartnomasida belgilangan, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni moliyalashtirish ochilgandan so'ng bajarmagan yoki bajara olmagan taqdirda, hamda buning natijasida Bankning foizli va boshqa xarajatlariga olib kelsa, bu holda barcha xarajatlar to'liq holda Qarz oluvchi tomonidan Bank foydasiga qoplanadi.

4.12. Bank Qarz oluvchining, shuningdek, boshqa banklarda ham ochilgan ikkilamchi hisoblariga bajarilishi majburiy bo'lgan to'lov talabnomalarini qo'yish huquqiga ega.

4.13. Bank, ushbu Kredit shartnomaning 9.1. bandida ko'rsatilgan, taqdim etilgan ta'minot bo'yicha majburiyatlarni undirish huquqini o'zida qoldiradi.

4.14. Bank, ushbu band bilan nazarda tutilgan o'z huquqlari va vakolatlarini, Qarz oluvchi tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmagan va/yoki tegishli tarzda bajarmagan holda ham, Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarini bajarish muddati kelganida ham, o'z ixtiyoriga ko'ra huquqlarini amalga oshirish huquqiga ega.

4.15. Qarz oluvchining kredit tarixini shakillantirish uchun Bank tomonidan unga ajratilgan Kredit to'g'risidagi ma'lumotlarni Kredit axboroti milliy institutida (KAMI), Kredit axborot taxliliiy markaziga (KATM), shuningdek, Garov reestri DUK da garov va garov xolati to'g'risida ma'lumotlarni takdim etadi. Qarz oluvchidan garov reestriga yozuv kiritgani va garov reestridan ko'chirma berganligi uchun yig'im olinadi.

4.16. Zarur bo'lganda, Bank "Bank siri to'g'risidagi" va "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida" gi Qonunlarga muvofiq, belgilangan tartibda Qarz oluvchi, uning ta'sischilari va menedjerlari faoliyati to'g'risida maxsus vakolatli davlat idorasiga ma'lumot beradi.

5. FOIZLAR

5.1. Qarz oluvchi foizlarni har to'lash Sanasida Kreditdan foydalanganlik uchun to'laydi, moliyalashtirish ochilishi sanasidan boshlab, foizlar hisoblanishining tegishli muddati uchun Bank kreditidan foydalanganlik natijasida yuzaga keladigan kredit bo'yicha muddatli kredit qarzdorligi bo'yicha Kredit valyutasida qayd etilgan yillik ___% **stavkada**.

5.2. Foizlar Kredit bo'yicha Qarzdorlikning bir kunlik qoldiqlari qiymatidan yiliga 365/366/360 (biri) kun va kun to'lovlarining orasidagi muddat davomida o'tgan aniq son asosida hisoblanadi, bunda kun miqdorini hisoblashda Foizlarni hisoblash davrining birinchi kuni inobatga olinib, aslida to'lov qilingan kun hisobga olinmaydi. Foizlarni to'lash kuni ishlamaydigan kunga to'g'ri kelgan taqdirda, foizlar bevosita Foizlarni to'lash kundan keyingi bank kuni to'lanishi shart.

5.3. Kredit mablag'larini konvertatsiya qilish uchun O'zbekiston Respublikasining Respublika valyuta birjasiga jo'natilgan taqdirda, Qarz oluvchi tomonidan konvertatsiya qilish uchun yuborilgan kredit mablag'lari bo'yicha foizlarni hisoblash sotib olingan chet el valyutasi qarz oluvchining maxsus valyuta hisobvarag'iga tushgan kundan boshlab amalga oshiriladi. Konvertatsiyaga yo'naltirilgan milliy valyutadagi kredit mablag'lari qarz oluvchining topshirig'i bilan kredit shartnomasiga zid bo'lmagan maqsadlarga yo'naltirilsa, ushbu kredit mablag'lari bo'yicha foizlar kredit mablag'lari o'tkazilgan kundan boshlab hisoblanadi. "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida"gi nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 29-sentyabrda 3460-son bilan ro'yxatga olingan).

5.4. Tadbirkorlik sub'ekti uning imtiyozli kredit olishiga sabab bo'lgan bitiruvchi(lar) yoki yosh(lar) o'rtasida ikki yil davomida mehnat shartnomasi bekor bo'lgan taqdirda, kredit foizi mehnat shartnomasi bekor bo'lgan sanadan tijorat stavkasiga o'zgartiriladi, bundan ushbu xodim(lar) o'rniga bir oy muddatda boshqa bitiruvchi(lar)ni yoki yosh(lar)ni ishga qabul qilingan hollar mustasno. (faqat "Talaba invest" produkti uchun)

6. KREDITNI QAYTARILISHI

6.1. Qarz oluvchi Kreditni imtiyozli davr tugagach, har foizlarni to'lash Sanasida, asosiy qarz va foizlarni to'lash Jadvaliga (ushbu Shartnomaga №1 Ilova) asosan asosiy qarzni to'lashning Birinchi Sanasidan boshlab qaytaradi.

6.2. Kreditning foydalanilgan qiymati ushbu Shartnoma bo'yicha Kreditning to'liq qiymatiga nisbatan kamroq bo'lgan taqdirda, Bank bilan boshqa qaror qabul qilinmagan bo'lsa, Kreditning ishlatilmagan qiymatiga nisbatan, teskari ketma-ketlikda so'nggi to'lovdan boshlab Kreditni qaytarish bo'yicha to'lovlar kamaytiriladi.

7. KREDITNING MUDDATIDAN OLDIN QAYTARILISHI

7.1. Qarz oluvchi, Bankni oldindan yozma ravishda xabardor qilgan holda va Bankning roziligi bilan, agar ushbu Shartnoma doirasida har qanday to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi hamda Bank oldida boshqa bajarilmagan majburiyatlari bo'lmasa muddatidan oldin kredit bo'yicha bir yoki undan ortiq to'lovni amalga oshirish huquqiga ega.

7.2. Muddatdan oldin qaytarilgan Kreditning har qanday qiymati, Bank boshqasiga rozilik bildirmagan holda, Kreditni qaytarish bo'yicha qolgan to'lanmagan to'lovlarga teskari ketma-ketlikda Kreditning qaytarilishi sifatida hisobga olinadi.

7.3. Qarz oluvchining Kredit bo'yicha to'lovlarni muddatdan oldin amalga oshirish istagi haqidagi xabarnomalari chaqirib olinmaydi va Qarz oluvchi keyinchalik bunday muddatdan oldin to'lovni bajara olmagan taqdirda, Kreditning muddatdan oldin qaytarilgan har qanday qiymati qayta qo'llanilishi va/yoki qaytarilishi mumkin emas.

7.4. Kreditning har qanday miqdori, muddatidan oldin qaytarilganidan keyin qayta foydalanib bo'lmaydi.

8. MUDDATI O'TGAN TO'LOVLAR

8.1. Qarz oluvchi tomonidan Kredit, foizlar, komissiyalar yoki ushbu Shartnoma bo'yicha har qanday to'lovning muddati kechiktirilsa, hamda ushbu Shartnomaning 15.1. moddasida ko'rsatilgani kabi, Bank Kreditni muddatdan oldin undirish uchun taqdim etish hollarini ham inobatga olgan holda va Qarz oluvchi Kreditni qaytarmagan taqdirda, Qarz oluvchi Bankka muddati o'tgan to'lovlar uchun foizlarni quyidagi stavka bo'yicha:

- muddati o'tgan asosiy qarz bo'yicha oshirilgan foiz stavkasi - muddatli kredit bo'yicha o'rnatilgan foiz stavkasining 1,5 barobari qiymatida, lekin asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorida kredit valyutasida, muddati o'tgan to'lovning vujudga kelgan sanadan boshlab, bunday to'lov qiymati hisoblangan foizlar bilan to'liq holda Bankka qaytarilgan sanagacha to'laydi.

8.2. Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan to'lovlari Bank talabiga binoan darhol to'lanishi shart.

9. TA'MINOT

9.1. Qarz oluvchi, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida, garovga quyidagilarni taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga oladi:

9.1.1. _____ (_____) so'm miqdorida;

9.1.2. Korxonada ta'rischisi _____ ning _____ (_____) so'm miqdoridagi solidar tartibdagi kafilligi;

9.1.3. Qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa ta'minot turlari.

9.2. Qarz oluvchi Kredit ta'minotini Kredit qiymatidan 125 foizdan kam bo'lmagan darajada saqlab turish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Kreditga to'lovni amalga oshirgan sari, Bank o'z ixtiyoriga ko'ra (Qarz oluvchining yozma murojaati asosida) Kredit ta'minotining bir qismini, ta'minot Kreditning foydalanilgan, biroq to'lanmagan qiymatidan 125 foizdan kam bo'lmagan darajada saqlangan holda, ozod qilishi mumkin. Bunda, Bank kreditning, foizlarning va u bo'yicha boshqa xarajatlarning to'liq qaytarilmaguniga qadar, taqdim etilgan ta'minotlar qismini ham ozod qilishda Qarz oluvchiga rad javobini berishi mumkin.

9.3. Ushbu bilan, Qarz oluvchi kredit bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni yoki har qanday boshqa qiymatni to'lash holatida bo'lmagan vaziyat yuzaga kelgan taqdirda, Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bilan belgilangan kunga Bankka quyidagilarni taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga oladi:

a) Ushbu bo'limga muvofiq har qanday ta'minotni sotish va undan foydalanishning so'zsiz huquqi;

b) Bank o'z garov huquqlarini amalga oshirishi uchun barcha zarur choralarni ko'rish.

9.4. Kredit buyicha asosiy qarzni va unga hisoblangan foizlarni yoki boshqa har qanday summani to'lash uchun taqdim etilgan ta'minotlar yetarli bo'lmagan taqdirda, Bank ushbu qarzni qarz oluvchining likvidli mulki hisobidan to'lashga xakli, xususan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari, transport vositalari, shuningdek, qarz oluvchining boshqa likvid aktivlari hisobidan ham.

9.5. Huquqbuzarlik yoki jinoyat subyekti sifatida garov musodara qilingan yoki boshqa yo'l bilan yo'q qilingan taqdirda, shuningdek, kafil to'lovga qobiliyatsiz bo'lgan taqdirda, Qarz oluvchi Bank talabiga javob beradigan kredit uchun boshqa likvid mol-mulk bilan kreditni ta'minlashi shart.

9.6. Bank kredit shartnomaning 15.1.- bandida ko'rsatilgan holatlar vujudga kelganida garov mulkini sud tartibida yoki sudsiz tartibda realizasiya qilish huquqiga ega, bunda garov mulki sudsiz tartibda realizasiya qilingan taqdirda garov mulki qarz oluvchining roziligisiz Bankning arizasiga asosan auksion savdolariga qo'yiladi. Ushbu bilan qarz oluvchi Bankka garov mulkini sudsiz tartibda realizasiya qilishga o'z roziligini bergan hisoblanadi.

10. MAXSUS SHARTLAR

10.1. Moliyalashtirish quyidagi shartlar Qarz oluvchi tomonidan bajarilgandan keyin amalga oshiriladi:

10.1.1. Bank uchun mos bo'lgan shartlarda Bank tomonidan garovga qabul qilinayotgan garov predmetini sug'urtalash, xususan, butun kreditlash muddati davomida garovga qo'yilgan ko'chmas va ko'char mulkning qisman yoki to'liq yo'qotilishi, tugatilishi va/yoki shikastlanishi xatariga qarshi garov predmetini sug'urtalash polisini taqdim etish, bunda kreditlashning butun muddati davomida barcha sug'urta shartnomalari va polislari bo'yicha Bank ishtirok etadi.

10.1.2. Kredit qiymatidan 125% dan kam bo'lmagan kredit bo'yicha ta'minot sifatida taqdim etilishi va Qarz oluvchi hisobiga belgilangan tartibda Bankni qoniqtiradigan shaklda bo'lishi lozim.

10.1.3. Ushbu Shartnoma yoki moliyalashtirishning boshqa talablariga muvofiq Bankka taqdim etilishi shart bo'lgan, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan sug'urta va Kredit ta'minoti bo'yicha (garov, kafillik) shartnomalar taqdim etilgandan so'ng.

10.1.4. Qarz oluvchi garov mulkini ma'lum bir sabablarga ko'ra kredit ta'minotiga qo'yish majburiyatini paysalga soladigan hollarda, jumladan mulk huquqini davlat ro'yxatida o'tkazmagan yoki ko'chmas mulkka nisbatan kadastr hujjatlarini o'z nomiga rasmiylashtirmasa, qarz oluvchi ko'chmas mulk ob'yektiga bo'lgan mulk huquqi yoki boshqa ko'char mulkka nisbatan ashyoviy huquqlar vujudga kelgan sanadan boshlab 10 kun ichidada mulk huquqini davlat ro'yxatida o'tkazish/ko'chmas mulkka nisbatan kadastr hujjatlarini o'z nomiga rasmiylashtirish majburiyatini oladi.

10.1.5. Loyiha TIA/Biznes rejasiga asosan ish o'rinlari yaratish rejasini to'liq bajarish hamda Bank tomonidan amalga oshiriladigan monitoring davomida yangi ish o'rinlari yaratilganlik to'g'risida tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish;

10.1.6. Qarz oluvchi tomonidan, kredit shartnomasi amal qilish davri mobaynida, mavjud hamda loyiha doirasida yaratilgan ish o'rinlari bo'yicha ish haqi to'lovlarini faqatgina "O'zmilliybank" AJ ning BXM/BXOlari orqali amalga oshirish majburiyatini oladi;

10.1.7. Qarz oluvchi tomonidan kredit hisobiga moliyalashtirilishi rejalashtirilgan oldi-sotdi shartnomalarni bank talablariga javob beradigan va bank ichki normativ hujjatlaridan kelib chiqqan holda rasmiylashtirilishi, bunda kredit mablag'larini naqdlashtirilish, qarz oluvchiga o'zaro aloqador korxonalar va tashkilotlarga o'tkazilishi, manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'ymasligi.

10.2. Alohida shartlar:

Kredit ajratilgan oyning keyingi oyidan boshlab Qarz oluvchi Bank tizimida ochilgan hisobvaraqaqidagi pul mablag'lari aylanmasini taqdim etilgan biznes reja ko'rsatkichlariga mos ravishda amalga oshirilishini, bunda oylik pul mablag'lari aylanmasi asosiy qarz to'lovining 3 baroboridan kam bo'lmagan miqdorda bo'lishini ta'minlashi shart.

Mazkur band talablarining bajarilmasligi, har bir shunday aniqlangan holat uchun Bank o'z xohishiga ko'ra Qarz oluvchiga nisbatan quyidagi choralardan birini qo'llash huquqiga ega:

- ogohlantirish;

- Qarz oluvchi tomonidan pul mablag'lari aylanmasi belgilangan ko'rsatkichlarining bajarilmagan qismidan 5 (besh) foiz miqdorida jarima qo'llashiga;

- to'liq Kredit summasini muddatidan oldin so'ndirish choralari ko'rishiga;

11. HISOBOT VA MOLIVAVIY MAJBURIYATLAR

11.1. Bank boshqasiga rozilik bildirmagan taqdirda, Qarz oluvchi kredit berilganidan so'ng, Bankni shakli va mazmuni bo'yicha qoniqtiradigan quyidagi hisobotlarni va ma'lumotni taqdim etadi:

- a) kamida chorakda bir marta buxgalteriya hisobi va hisobotlar to'g'risidagi ma'lumotlar (ya'ni qo'shimchalar bilan buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi va boshqa hisobotlar), ichki va tashqi bozorlarda sotish hajmi va narxlari ko'rsatilgan tayyor mahsulotni sotish, shuningdek, Loyiha bilan bog'liq ekologik muammolar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- b) har bir moliyaviy yil tugaganidan keyin 90 kun ichida tegishli soliq organlari tomonidan tasdiqlangan belgilangan buxgalteriya standartlariga muvofiq tayyorlangan Qarz oluvchining o'tgan moliyaviy yil uchun to'liq moliyaviy hisoboti va u bilan to'liq auditorlik xulosasi hamda auditorlarning Qarz oluvchi rahbariyatiga yozilgan sharhlari, Qarz oluvchining moliyaviy nazorati choralari, protseduralari va buxgalteriya tizimlarining yetarliligi, shuningdek tegishli qarz oluvchilar bilan muhim moliyaviy operatsiyalar to'g'risidagi hisobot;
- c) Loyiha tugagandan keyin 30 kundan kechiktirmay, Qarz oluvchi Bankka hisobotni shunday hajmda va Bank tomonidan asosli ravishda talab qilgan darajada batafsil hisobotni taqdim etadi. Loyihaning ishlashi, shu jumladan Loyiha bilan bog'liq ekologik muammolar, xarajatlar va olingan daromadlar yoki loyihadan kelgusi daromadlar, Qarz oluvchi va Bank tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- d) Qarz oluvchining loyihani texnik-iqtisodiy asoslashini amalga oshirish uchun, Kreditni o'z vaqtida qaytarish va unga foizlarni kreditning valyutasida to'lashiga ta'sir ko'rsatadigan, ishlab chiqarilgan mahsulotning sotilishini monitoring qilish uchun Qarz oluvchining xorijiy sheriklar bilan tuzilgan va / yoki tuziladigan eksport shartnomalarining nusxalari;
- e) Kredit asosida moliyalashtiriladigan tovarlar, ishlar va xizmatlar xarajatlari to'g'risidagi har qanday ma'lumotni, Bank asosli ravishda so'rashi mumkin bo'lgan batafsil darajada taqdim etish;
- f) Qarz oluvchi va Loyihani amalga oshirish bilan bog'liq ravishda Bank tomonidan talab qilinadigan boshqa har qanday ma'lumotlar;
- g) Qarz oluvchi unga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy o'zgarishlar yoki sharoitlar, Qarz oluvchi tomonidan bajarilmagan yoki bajarilmasligi mumkin bo'lgan holatlar, shuningdek, Qarz oluvchini qayta tashkil etish bo'yicha har qanday rejalar to'g'risida zudlik bilan Bankni xabardor qilishi shart;
- h) Qarz oluvchi Kreditga nisbatan muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday hodisalar to'g'risida Bankni xabardor qiladi.

11.2. Qarz oluvchi Bank vakillariga Loyiha amalga oshayotgan joyga tashrif buyurish va kreditdan moliyalashtirilgan tovarlar va xizmatlarni, ushbu kredit bo'yicha qabul qilingan garov ta'minotini, shuningdek qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan har qanday bino, mulk, jihoz, hisobot va hujjatlarni tekshirish imkoniyatini beradi.

11.3. Qarz oluvchi buxgalteriya hisobi, xarajatlarni boshqarish va axborotni boshqarish tizimini ta'minlaydi, Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli va uning faoliyati natijalarini to'g'ri va aniq aks ettiruvchi buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va boshqa hisobotlarni umumiy qabul qilingan buxgalteriya standartlariga muvofiq yuritadi;

11.4. Qarz oluvchi kapitalning yetarlilik koeffitsienti kamida 30:70 (o'ttizga yetmish, ya'ni o'ttiz foiz o'z mablag'lari, yetmish foiz majburiyatlar) darajada bo'lishini ta'minlash uchun barcha choralarni ko'radi.

12. TASDIQLOVCHI MAJBURIYATLAR

12.1. Bank boshqasiga rozilik bildirmasa, Qarz oluvchi quyidagilarga majbur:

- a) kreditdan faqat ushbu Shartnomada belgilangan maqsadlar uchun foydalanish;
- b) Loyihani zarur darajada amalga oshirish uchun zarur moliyaviy, moddiy resurslar va xizmatlarni o'z vaqtida izlab topish;
- c) o'z faoliyatini amalga oshirish va ushbu Shartnoma shartlarini bajarish uchun barcha zarur ruxsatnomalar va litsenziyalarni o'z vaqtida olish va yangilash;
- d) o'z binolari, jihozlari va boshqa mulklardan foydalanish va ularni normal ish sharoitida saqlash va zarur hollarda darhol zarur moliyaviy va texnologik amaliyotga muvofiq zarur ta'mirlash va yangilanishlarni amalga oshirish;

- e) ushbu kredit uchun garov sifatida berilgan mol-mulkni Bank uchun maqbul bo'lgan shartlarda va sug'urta kompaniyasida sug'urtalashni amalga oshirish, hamda Bankning birinchi talabiga binoan bunday sug'urtalashni Bank foydasiga qayta amalga oshirish;
- f) o'z faoliyati va operatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq amalga oshirish;
- g) loyihani xavfsizlik, sog'liq va atrof-muhitning standartlari va amaliyotiga muvofiq amalga oshirish;
- h) hujjatlarni yuritish va loyihaning bajarilishini monitoring qilish uchun zarur bo'lgan tadbirlar va yozuvlar, shu jumladan uning xarajatlari va hisoblangan foydaning bajarilishini ta'minlash;
- i) amaldagi buxgalteriya qoidalariga muvofiq buxgalteriya hisobi va qarz oluvchining faoliyatini nazorat qilish tizimini amalga oshirish va Bank uchun maqbul audit tashkiloti tomonidan har yili qabul qilinadigan moliyaviy hisobotlarning auditini o'tkazish;
- j) ushbu Shartnoma bo'yicha to'lov majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar Bankdagi barcha hisobvaraqlarini yuritish;
- k) Qarz oluvchining Kreditni qaytarish bo'yicha majburiyatlari Qarz oluvchi uchinchi shaxslar oldidagi o'xshash majburiyatlarga nisbatan birinchi navbatda bajariladi;
- l) Qarz oluvchi foydasidan dividendlar faqat Bankda ochilgan maxsus omonat hisobvarag'iga foizlar va asosiy qarzni keyingi to'lash uchun yetarli miqdor o'tkazilgandan keyingina to'lanishi mumkin;
- m) kamida chorakda bir marta Bank vakillarining Loyihani amalga oshirish joyiga chiqqan holda doimiy monitoring qilish, garovga qo'yilgan mol-mulkning holati va Loyihaning borishini tekshirish, kredit mablag'laridan foydalanishga doir buxgalteriya hujjatlarini tekshirish uchun borishini ta'minlash va buning uchun imkon yaratish;
- n) Kredit berish muddati davomida, kredit to'liq qaytarilgunga qadar, foizlar bilan, kredit valyutasidagi mablag'lar faqat Bankda ochilgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga ushbu Qarz oluvchining Loyihadini texnik-iqtisodiy asoslashda rejalashtirilganidan kam bo'lmagan miqdorda, kredit muddati va davrini hisobga olgan holda xorijiy valyuta tushumlarining yillik o'sishi bilan o'tkazilishini ta'minlash;
- o) agar Qarz oluvchi tomonidan Kredit uchun Bankka taqdim etilgan garov o'z qiymatini yo'qotgan yoki yaroqsiz holga kelgan bo'lsa, Qarz oluvchi, Bankning iltimosiga binoan, pul mablag'lari bilan garov qiymati kamaygan miqdorni qoplaydi yoki ushbu garovni boshqa likvidli mulkka almashtiradi;
- p) Kreditdan maqsadli foydalanganligini tasdiqlash maqsadida tovar va xizmatlar, texnologik liniya, ko'chmas mulk sotib olinganligi to'g'risidagi hujjatni sotib olingandan so'ng 10 kun ichida Bankka taqdim etish;
- q) Loyiha bo'yicha har oylik monitoringni amalga oshirish uchun Bank xodimlari uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ta'minlash;
- r) ishlab chiqarish quvvatlarini o'z vaqtida va bosqichma-bosqich oshirilishini ta'minlash, ushbu loyihani texnik-iqtisodiy asoslashda rejalashtirilganidan past bo'lmagan parametrlarda, ishlab chiqarish faoliyati jarayonida ishlab chiqaruvchi talablariga javob beradigan ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz va sifatli ishlashini ta'minlash uchun faqat yuqori malakali mutaxassislar va texnologiyalarni jalb qilish.

13. INKOR ETILADIGAN MAJBURIYATLAR

13.1. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi Bankning oldindan roziligisiz quyidagilarni bajarishga haqli emas:

- a) uchinchi tomonlardan qarzlarni jalb qilish va taqdim etish;
- b) dividendlarning hisoblanishini va to'lovini amalga oshirish;
- c) sho'ba korxonalarini tashkil etish;
- d) o'z Ustaviga biron bir jiddiy o'zgartirishlar kiritmaslik va kiritishga yo'l qo'ymaslik. Ustavning jiddiy o'zgarishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:
 - korxonaning tashkiliy-huquqiy tarkibidagi o'zgarishlar;
 - korxonaning ustav kapitali miqdorini kamaytirish;
 - aksiyadorlar tarkibidagi o'zgarishlar, xususan, aksiyadorlarning chiqishi, boshqaruvning yangi ulushiga ega bo'lgan yangi ishtirokchilar va boshqalar;
 - asosiy faoliyatdagi o'zgarishlar;
 - korxonalarini boshqarish organlarining vakolatlari o'zgarishi.

- e) uchinchi tomon bilan, bajarilishi ushbu Shartnoma shartlariga zid kelishi mumkin bo'lgan yoki Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarishiga xavf tug'diradigan har qanday bitimlar tuzish;
- f) Qarz oluvchining faoliyati yoki mol-mulkingning barchasi yoki muhim qismi uchinchi tomon tomonidan boshqariladigan shartnomalar tuzish;
- g) Birlashtirish, tugatish yoki boshqa har qanday qayta tashkil etishni amalga oshirish;
- h) Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini ta'minlash uchun garovga qo'yilgan mol-mulkini to'liq yoki bir qismini boshqa shaxsga berish, sotish, berish, ijaraga berish;
- i) Qarz oluvchining ular oldidagi majburiyatlarini ta'minlash uchun uning mol-mulki yoki mulkiy huquqlarini, mol-mulkiga va mablag'iga nisbatan boshqa huquqlarga, shuningdek mulkiy bo'lmagan huquqlarni uchinchi shaxslarning garoviga qo'ymaslik;
- j) uchinchi tomonga nisbatan har qanday qarzlarning muddatdan oldin to'lovini amalga oshirish;
- k) Kredit mablag'laridan, ushbu Shartnoma bilan ko'zda tutilmagan maqsadlar uchun ishlatish;
- l) Loyiha va/yoki Kontraktga o'zgartirishlarni kiritish uchun ruxsat berish;
- m) O'z kapitalini qisqartirish yoki sotib olish yoki biron bir aksiyani bekor qilish;
- n) boshqa banklarda har qanday hisoblarni ochish;
- o) Bankning rozilgisiz tashqi boshqaruvga berish.

14. QARZ OLUVCHINING TASDIG'I

14.1. Ushbu bilan Qarz oluvchi Bankka quyidagilarni tasdiqlaydi va Shartnoma amal qilish muddati davomida kafolatlaydi:

- a) O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq belgilangan tartibda tashkil etilgan va ro'yxatga olingan yuridik shaxs ekanligini;
- b) Unga tegishli bo'lgan mulkka va boshqa aktivlarga nisbatan egalik huquqiga egaligini;
- c) Ushbu Shartnomani imzolagan shaxslar Qarz oluvchining ta'sis hujjatlariga muvofiq tegishli ravishda vakolatga egaligini. Qarz oluvchi Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishga haqli va bu majburiyatlar amaldagi qonunchilikka muvofiq unga nisbatan qo'llaniladi;
- d) Shartnomani imzolash va uning ijrosi O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, Qarz oluvchining ustav hujjatlariga, shuningdek Qarz oluvchi tarafi bo'lgan uchinchi shaxslar bilan tuzilgan har qanday boshqa shartnomalarga zid kelmasligini;
- e) Qarz oluvchi majburiyatlarini qonuniy kuchga kirish uchun zarur bo'lgan barcha ruxsatnomalar, litsenziyalar, vakolatlar, istisnolar, ro'yxatdan o'tkazish, sertifikatlar va boshqa harakatlar qabul qilingan va kuchga kirganligini;
- f) Qarz oluvchining majburiyatlarini qonuniy qilish uchun zarur bo'lgan barcha zarur ruxsatnomalar, litsenziyalar, vakolatlar, istisnolar, ro'yxatdan o'tish, kafolatlar va boshqa harakatlar olingan va kuchga kirgan;
- g) Qarz oluvchiga nisbatan ma'muriy, arbitraj yoki sud yoki sudga qadar ish yuritish harakatlari qo'zg'atilmagan va Qarz oluvchining faoliyatiga yoki ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, uchinchi shaxslar oldida bajarilmagan majburiyatlar mavjud emasligi;
- h) Kreditni to'lashni, kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni to'lashni ushbu Kredit Shartnomasida belgilangan muddatlarda amalga oshiradi;
- i) Qarz oluvchi kreditorlarning hech birida Bank tomonidan Qarz oluvchining har qanday mulkidan o'z talablarini qondirish uchun imtiyozli huquqqa ega emas va bo'lmasligi;
- j) Qarz oluvchi tomonidan o'z aktivlariga nisbatan uchinchi shaxslar foydasiga hech qanday garov ta'minoti tashkil etilmaganligi;
- k) Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganlik holati mavjud emasligi;
- l) Quyidagi xabarnomalar rasmiy xabarnoma sifatida qarz oluvchi tomonidan qabul qilinadi: buyurtmali va qimmatli xat, telegraf, teletayp, shuningdek boshqa aloqa vositalaridan foydalanish va/yoki imzo bilan tasdiqlab topshirish;
- m) Qarz oluvchi yuqoridagi ma'lumotlarning o'zi uchun yetarli ekanligini va Shartnomani tuzish to'g'risida qaror qabul qilish va uning investitsiya ishtirokidagi xatarlarni baholash uchun asos bo'lib xizmat qilganligini tasdiqlaydi va u hozirgi va kelajakdagi moliyaviy ahvolini yetarlicha baholagan holda ushbu Shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlarni bajarishni ta'minlashi;
- n) Bankka taqdim etilgan Kontraktlar to'liqligini va barcha mavjud ilovalarni o'z ichiga olishini, shuningdek, Shartnoma imzolangan sanaga qadar Kontraktlarga o'zgartirish va qo'shimchalar

kiritilmaganligini. Qarz oluvchi Bankni yozma ravishda xabardor qilib Kontraktlarga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga Bankning roziligini olishgan holatlar bundan mustasno.

15. MAJBURIYATLAR BAJARILMAGAN HOLATLAR

15.1. Quyidagi hodisalardan har biri majburiyatlarni bajarmaganlik holati bo'lib hisoblanadi:

- a) Qarz oluvchi ushbu Shartnoma yoki Bank bilan tuzilgan har qanday boshqa kelishuv bo'yicha belgilangan sanada Kredit, foizlar, komission to'lovlar yoki boshqa to'lovlarni amalga oshirmagan bo'lsa;
- b) Bankning fikriga ko'ra, Loyihani amalga oshirishga yoki Qarz oluvchining Bank oldidagi to'lov majburiyatlarini bajarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan voqealar yuz bergan bo'lsa;
- c) Ushbu Shartnoma bo'yicha moliyalashtirilgan Loyiha yoki Kontrakt, Bankning rozilgisiz o'zgartirilsa yoki bekor qilinsa, u bo'yicha barcha majburiyatlarning bajarilishi bilan bog'liq holatlar bundan mustasno;
- d) Bankni oldindan yozma ravishda xabardor qilmasdan, Qarz oluvchi ustav kapitalini kamaytirish, qayta tashkil etish, qo'shib yuborish, mulkni topshirish, bo'linish yoki tugatish;
- e) Qarz oluvchining Loyihada, Loyihani amalga oshirish yoki ushbu Shartnoma bo'yicha Bankka taqdim etgan har qanday yozma bayonoti, hisoboti yoki ma'lumotlari uni taqdim etish paytida yolg'on ekanligi isbotlangan bo'lsa;
- f) Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashsa yoki Qarz oluvchi uchinchi shaxslar bilan tuzilgan har qanday bitimlar bo'yicha to'lovlarni yoki boshqa majburiyatlarni bajarmasa, bu esa, Bankning fikriga ko'ra, Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa;
- g) Bankning Kredit berishni imkonsiz yoki asossiz holga keltiradigan yoki Qarz bo'yicha qarzдорligi mavjud bo'lgan yoki Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish qobiliyatiga ta'sir qiladigan qonunchilik yoki tartibga soluvchi qoidalar joriy bo'lsa;
- h) Loyihani va Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini zarur darajada bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday ruxsatnomalar, litsenziyalar, ro'yxatga olishlar, sertifikatlar, guvohnomalar va boshqalar o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa;
- i) Qarz oluvchi to'lov majburiyatlarini bajara olmasa yoki unga nisbatan bankrotlik ishi qo'zg'atilgan bo'lsa yoki Qarz oluvchi bankrot deb e'lon qilingan bo'lsa;
- j) Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha va/yoki garov, ipoteka, sug'urta yoki ushbu Shartnoma bilan bog'liq boshqa shartnomalar bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmagan bo'lsa;
- k) Bank Loyiha bo'yicha Qarz oluvchini boshqarish va hisobot berish tartibidan qoniqmasa yoki Qarz oluvchining nazorati uchinchi shaxslarga berilsa;
- l) har qanday vakolatli organ Qarz oluvchini tarqatish, tugatish yoki uning faoliyatini to'xtatib qo'yish uchun har qanday choralar ko'rgan yoki Qarz oluvchi uchun shunga o'xshash ma'noga ega bo'lgan har qanday boshqa harakatlarni amalga oshirgan bo'lsa;
- m) "Maxsus shartlar" bo'limi moliyalashtirish shartlari bandida ko'rsatilib o'tilgan shartlar 30 kun muddat ichida o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilmagan taqdirda.
- n) har qanday sanksiya ro'yxatiga tushgan bo'lsa. Bunda sanksiya deganda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va (yoki) Evropa Ittifoqi va (yoki) Buyuk Britaniyaning sanksiyalar ro'yxati va (yoki) SDN sanksiyalar ro'yxati (Specially Designated Nationals and Blocked Persons List - maxsus tayinlangan fuqarolar va bloklangan shaxslar ro'yxati) va (yoki) CAPTA (List of Foreign Financial Institutions Subject to Correspondent Account or Payable-Through Account Sanctions) yoki yuritish taqiqlangan yoki bir yoki bir nechta qat'iy shartlarga rioya qilingan xorijiy moliya institutlarining ro'yxati va (yoki) NS-MBS (Non-SDN Menu-Based Sanctions List - SDNga asoslanmagan sanksiyalar ro'yxati) AQSh G'aznachilik departamentining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi OFAC (Office of Foreign Assets Control of U.S. Department of the Treasury) tomonidan, shuningdek, ekstraterritorial ta'sirga ega bo'lgan boshqa har qanday davlat va (yoki) xalqaro tashkilot tomonidan qo'llaniladigan sanksiyalar ro'yxati tushuniladi.

16. MAJBURIYATLARNI BAJARMAGANLIK HOLATI VUJUDGA KELGANIDA HARAKATLARNI TO'XTATIB TURISH, TUGATISH

16.1. Majburiyatlarni bajarmaslik holati yuzaga kelganida (15-bo'limda ko'rsatilgan), Bank o'z xohishiga ko'ra quyidagi harakatlardan birini amalga oshirishi mumkin:

- a) Qarz oluvchiga majburiyatlarni bajarmaslik holati yuzaga kelganligi to'g'risida xabar berish, uni bartaraf etish muddatini belgilagan holda;
- b) Qarz oluvchining har qanday banklardagi har qanday hisobvaraqlaridan Kredit bo'yicha barcha muddati o'tgan qarzlarni, shu jumladan muddati o'tgan foizlarni talab qilish va/yoki hisobdan chiqarish;
- c) Qarz oluvchining Kreditdan foydalanish huquqini to'xtatib qo'yish yoki tugatish;
- d) Kreditning to'liq yoki qisman, kreditga hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlar va ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan boshqa to'lovlarni muddatidan oldin va darhol to'lashni talab qilish.
- e) ushbu shartnomaning 9 bo'limiga muvofiq garovga qo'yilgan ta'minotni sotish bo'yicha har qanday huquqlardan foydalanish.

17. HUQUQLARNI TASARRUF ETISH

17.1. Bank Qarz oluvchining roziligisiz ushbu shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining to'lov va boshqa majburiyatlarini har qanday uchinchi tomon foydasiga sotish, yon berish yoki boshqacha tarzda tasarruf etish huquqiga ega va bunday holatda uchinchi tomon ushbu Shartnoma bo'yicha Bankning barcha huquqlariga ega bo'ladi. Qarz oluvchi, Bankning talabiga binoan, ushbu topshiriqqa yuridik kuch berish uchun zarur bo'lgan barcha harakatlarni o'z hisobidan amalga oshiradi.

17.2. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini Bankning yozma roziligisiz topshirishga yoki boshqacha tarzda tasarruf etishga haqli emas.

17.3. Agar Bank va Qarz oluvchi o'rtasida o'zaro pul talablari mavjud bo'lsa, Bank o'z xohishiga ko'ra Qarz oluvchining Bankka nisbatan talablarini, o'zining Qarz oluvchiga nisbatan talablari hisobidan qondirishi mumkin. Qarz oluvchi Bankning yozma roziligisiz Bankka nisbatan har qanday talablarini qondirishga haqli emas.

18. KUCHGA KIRISH SHARTLARI

18.1. Ushbu Shartnoma imzolangan sanadan boshlab kuchga kiradi.

18.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha Bankning majburiyatlari, agar Bank boshqacha qarorga kelmasa, Qarz oluvchi Bank uchun maqbul shartlar va shakllarni bajargandan so'ng, Qarz oluvchi majburiyatlarni bajarish uchun quyidagi ta'minotni taqdim etganidan keyin kuchga kiradi:

- Kredit qiymatidan 125% dan kam bo'lmagan miqdorda likvid ta'minot taqdim etilganida;
- Qarz oluvchi huquqshunoslarning (yoki jalb qilingan advokatlarining) tuzilgan kredit shartnomasi, garov va/yoki kafillik shartnomalari loyihalari bo'yicha amaldagi qonunchilikka muvofiqligi, shu jumladan shunday shartnomalarni imzolagan shaxslarning vakolatlari tasdiqlovchi xulosalari taqdim etilganida.

18.3 Bank moliyalashtirishni Qarz oluvchining yozma majburiyatiga binoan, biznes-rejaga muvofiq o'z/_____ mablag'lari hisobidan amalga oshiradi.

18.4 Bank, o'z xohishiga ko'ra, yuqoridagi shartlarning birini yoki bir nechtasini bajarmay, qarz berish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin, ammo Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlari to'liq kuchda qoladi va Qarz oluvchi Bankning bunday qaroriga qarshi da'vo yoki e'tiroz bildirmaydi.

19. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

19.1. Taraflar ushbu Shartnomani tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, Shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oldilar.

19.2. Taraflar ushbu bo'limdagi korrupsiyaga qarshi shartlarda belgilangan korrupsiyani oldini olish choralari tan oladi va ularga rioya etilishini bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

19.3. Har bir taraf ushu Shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari,

mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan Shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmagani, Shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yod qo'yilmagani, taklif etilmagani, ularni berishga va'da qilinmagani, shuningdek, moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan Shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

19.4. Taraflar o'zlari, shuningdek, o'zining ijroiya o'rganlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga, jumladan qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yohud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyati, manbai, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilikini yashirishga yo'l qo'ymaydilar.

Shuningdek, taraflar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun tamagirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish holati bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

19.5. Taraflar tovarlar, xizmat va ishlarni realizatsiya qilish va o'tkazish, bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borish, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyutorlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillar) nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshirishi shart:

- korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;
- ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;
- ularni faqat tarafning kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish;
- ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

19.6. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

19.7. Agar bir tarafga boshqa tarafning ushbu bodimda belgilangan har qanday shartning buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xabardor qilishni talab qilishi shart.

Tarafning talabi bo'yicha tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf Shartnomani bir taraflama to'xtatib turish yoki bekor qilishga, hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli".

20. BOSHQA SHARTLAR

19.1 Ushbu Shartnoma bo'yicha barcha xabarnomalar, roziliklar, ma'lumotlar vakolatli shaxslar tomonidan yozma shaklda rasmiylashtirilishi va quyidagi manzillarga yuborilishi kerak:

Bank: O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy banki AJ _____ viloyati
“_____” bank xizmatlari markazi

Manzil: _____ viloyati, _____ shahar, _____ -- -uy.

Qarz oluvchi: “_____” MCHJ

Manzil: _____ viloyati _____ shahar _____ MFY, _____ ko‘chasi, -- -uy.

Faoliyat joyi: ---- yildagi _____-sonli ijara shartnomaga asosan _____ viloyati _____ tumani,
_____ MFY, _____ ko‘chasi -- -uy.

19.2 Qarz oluvchi istalgan vaqtda Kreditni yoki uning bir qismini undan foydalanish huquqidan, Bank tomonidan ushbu Shartnoma asosida yoki Qarz oluvchining ko‘rsatmalariga binoan, uchinchi tomonga Kredit hisobidan to‘lovni amalga oshirish uchun qaytarib bo‘lmaydigan majburiyat yoki vakolat bermagan taqdirda, voz kechishga haqli. Qarz oluvchi Kreditdan foydalanishni rad etish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni, shu jumladan, lekin shu bilan cheklanmagan holda, qarz summasini qayta taqsimlash bilan bog‘liq xarajatlarni qoplaydi.

19.3 Ushbu shartnoma taraflari ular o‘rtasidagi yoki ushbu shartnoma bilan bog‘liq bo‘lgan barcha kelishmovchiliklar va nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal qilinadi. Agar bahsli kelishmovchilik yoki muammoli masala muzokaralar yo‘li bilan hal etilmasa, ular o‘rnatilgan tartibda Bank (Kreditor) joylashgan hududdagi sudga yuboriladi va O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

19.4 Ushbu Shartnoma Qarz oluvchining uchinchi tomon bilan tuzgan har qanday kelishuvidan huquqiy jihatdan mustaqildir va Qarz oluvchi bunday shartnomaning qoidalariga asoslanib Bankka da‘vo qila olmaydi.

19.5 Agar qonun hujjatlariga biron bir o‘zgartirish kiritilsa, natijada ushbu Shartnomaning biron bir qoidasi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga mos kelmasa, u ushbu Shartnomaning boshqa qoidalarini amalga oshirishga ta‘sir qilmaydi va tez orada almashtirilgan qoidalarning mazmuni va maqsadiga yaqin bo‘lgan qoidalar bilan almashtiriladi.

19.6 Agar ushbu Shartnoma tomonlaridan biri Shartnoma muddati davomida har qanaqasiga qayta tashkil etilsa va uning huquqiy maqomida boshqa o‘zgarishlar amalga ohsa, ushbu Shartnoma o‘z kuchini saqlab qoladi va o‘zgarishlarni boshdan kechirgan tomon ushbu Shartnomaning barcha majburiyatlarini saqlab qolgan holda, ushbu Shartnomaning vorisi bo‘ladi.

19.7 Yuridik manzili o‘zgartirilganda, tomonlar bunday o‘zgarishdan keyin 3 kun ichida bir-birini bu haqida xabardor qilishlari shart.

19.8 Ushbu Shartnoma tomonlaridan birining mustaqil yuridik shaxs sifatida faoliyati to‘xtatilgan taqdirda, tugatilayotgan tomonning xuddi shu yoki o‘xshash funksiyalari va majburiyatlarini o‘z zimmasiga olgan yangi idora yoki tashkilot ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun tugatilayotgan tarafning huquqiy vorisi sifatida amal qiladi. Qarz oluvchining vorisi mavjud bo‘lmagan taqdirda, Qarz oluvchi Bankka tugatilayotgan tomonning mol-mulkidan uning talablarini qondirish uchun imtiyozli huquqni beradi.

19.9 Shartnoma, Qarz oluvchining Bank oldidagi ushbu Shartnomada nazarda tutilgan barcha to‘lov majburiyatlari bajarilgandan so‘ng, o‘z kuchini yo‘qotgan hisoblanadi.

19.10 Bank o‘zining ixtiyoriga ko‘ra, ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z huquqlaridan Qarz oluvchiga nisbatan foydalanishi yoki foydalanmasligi mumkin. Bank tomonidan ushbu huquqlarning qo‘llanilmasligi yoki qisman qo‘llanilishi bu huquqlardan voz kechishni anglatmaydi va kelajakda istalgan vaqtda qo‘llanilishi mumkin.

19.11 Tomonlarning har biri ushbu Shartnomaning predmeti va shartlariga tegishli ma‘lumotlarning qat‘iy maxfiylikini saqlaydi va ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni oshkor qilishdan himoya qilish uchun barcha choralarni ko‘radi. Shunga qaramay, ushbu moddaning qoidalari vakolatli davlat idoralarga ma‘lumot taqdim etgan tomonlarga, shuningdek Qarz oluvchi tomonidan rasmiy tashkilotlarga O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan tartibda taqdim etiladigan hisobotlarga taalluqli emas.

19.12 Ushbu Shartnomadagi barcha o‘zgarishlar yozma ravishda qo‘shimcha kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

19.13 Shartnoma o'zbek tilida 2 (ikki) nusxada tuzilib, tomonlarning har birida saqlanadi va ularning har biri bir xil yuridik kuchga ega.

21. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI:

Bank: O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy banki A J _____ viloyati

“ _____ ” bank xizmatlari markazi

Manzil: _____ viloyati, _____ shahar, _____ -- -uy.

MFO/KOD: _____, **STIR:** _____;

Korr. h/r

BANK UCHUN:

_____ **BXM**
BOSHQARUVCHISI: _____ **F.I.O**

BOSH BUXGALTER: _____ **F.I.O**

BOSH YURISTKONSULT: _____ **F.I.O**

QARZ OLUVCHI:

Nomi: “ _____ ” **MCHJ**

Manzil: _____ viloyati _____ shahar _____ MFY, _____ ko'chasi, -- -uy
Faoliyat joyi: ----- yildagi ----- -sonli ijara shartnoma/kadastrga asosan _____ viloyati _____ tumani, _____ MFY, _____ ko'chasi 10-uy.

Hisob raqami:

MFO/KOD: 00450, **STIR:** 309 665 606

QARZ OLUVCHI UCHUN:

RAHBAR: _____ **F.I.O**